



## GIJJA TURLARI VA UNI DAVOLASH USULLARI

---

*Djumayeva Maxfuza Kayumovna*

*Buxoro davlat tibbiyot instituti Tibbiy kimyo kafedrasida assistenti*  
*[dmahfuza51@gmail.com](mailto:dmahfuza51@gmail.com)*

*Zoyirov Dilshod Nuriddin o'g'li*

*Buxoro davlat tibbiyot instituti Farmatsiya yo'nalishi II kurs talabasi*

### Annotatsiya

Maqolada tirik organizm ichaklarida parazitlik qilishi oqibatida uning tana a'zolariga katta zarar yetkazadigan gijjalar haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, ushbu parazitlarning insonlar, hayvonlar, o'simliklar hisobiga hayot kechirishi, ular organizmi ichida rivojlanib va ko'payishi va buning oqibati nimalarga olib kelishi aytib o'tilgan. Maqolamizning yakunlarida esa gijjalarning ba'zi turlaridan xalos bo'lish choralari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** gijja, parazitlar, tuproq orqali yuqish, suv orqali yuqish, uy hayvonlari orqali yuqish

O'tmishdan boshlab, bugungi zamonaviy jamiyatimizda ham gijja turlari keng tarqalgan. Bu gijjalar ayniqsa, baliqchilar, ovchilar va ularning oilalarida shuningdek, yosh bolalarda ko'p uchraydi.

Gijjalar bu bir necha xil parazit chuvalchanglar bo'lib, insonlar, hayvonlar, o'simliklar hisobiga hayot kechirib, ular organizmi ichida rivojlanadi va ko'payadi. O'zbekiston huquqida bugungi kunda parazitlarning 60 dan ortiq turi mavjud. Agar davolanmasa parazitlar inson ichaklarida parazitlik qilgan holda, uzunligi 5-6 metrga ham yetishi mumkin. Parazitlik qilishi oqibatida inson tana a'zolariga katta zarar yetkazadi. Bunda hattoki, inson yiqilib suyaklarini sindirganda yoki qo'lini, tanasini kesib olganda og'riqni umuman his qilmaydi, ya'ni sezuvchanlikni yo'qotadi.

Inson gijjalarga yo'liqmaslik uchun, avvalo uning qanday tarqalishi va yuqishining usullarini bilishi lozim. Dastlabki yuqish turi bu tuproq va suv orqali yuqishdir. Gijjalar tuproq, suvda rivojlanadi, keyin inson tanasiga tushganda u yerda tuxum qo'ya boshlaydi. So'ngra bu tuxumlar najas orqali tashqariga chiqarib yuboriladi va bu tuxumlar boshqa insonni zararlash maqsadida o'z vaqtini kutib yotadi. Yaxshi yuvilmagan meva va sabzavotlarni iste'moli insonni geogelmintlar bilan zararlantirishiga olib keladi. Parazitlarning ayrim tuxumlari inson organizmiga teri orqali ham kiradi. Bunday parazitlar asosan, suv orqali yuqadi. Cho'milish



havzalariga bu parazitni yuqtirgan odan kirganida , tansidagi parazit suvga tuxumlarini tashlaydi va bu tuxumlar boshqa inson tanasiga ornashadi.

Keyingi yuqish usuli bu to'g'ridan to'g'ri aloqa bilan yuqish hisoblanadi. Ya'ni uy hayvonlarini o'ynatganda , ularni silaganda , quchoqlaganda qo'llarga gijja tuxumlari o'rnashib qoladi. Agar qo'llar yaxshi yuvilmay ovqatlanilganda , inson bu parazitlarni uziga yuqtirib oladi.

Hozirgi rivojlangan zamonamizda gijjani davolashga katta e'tibor qaratilgan. Buning uchun ko'plab dorilar ham ishlab chiqilmoqda . Ammo , bu borada tabiiy mahsulotlardan ham foydalangan holatda gijjaga qarshi da'vo usullarini topish mumkin.

Samarali bo'lgan usullardan foydalanamiz. Birinch bo'lib, sut mahsulotlaridan yarim stakan qatiq , bir choy qoshiq asal va 2dona sarimsoq bo'lagini tayyorlab olamiz. Sarimsoqlarimizni qirg'ichdan chiqarib olamiz . Yarim stakan qatiq ustiga qirg'ichdan chiqarilgan sarimsoqlarimizni aralashtiramiz. Tayyor bo'lgan massamizni 10 kun davomida har kuni ertalab nonushtadan 1 soat oldin iste'mol qilinadi. Tayyor massani iste'mol qilishdan 5 daqiqa oldin esa asalni tanovul qilish kerak.

Gijjalar tufayli insonda bosh og'rig'i ham kuzatiladi. Buni davolashda badan va miyani tozalashdan boshlash zarur[1]. Keyin ozgina iyoraj fiqroni burunga yuboriladi va buni haftada bir necha marta qaytariladi[2]. Burun sassiqligi bobida eslatiladigan dorilar va qorindagi gijjalarni o'ldiradigan hamma dorilar, masalan shaftoli bargaining siqib olingan shirasi , tut ildizining shirasi va sabr ishlatiladi[3].

Gelmintlar yoki gijjalar - parazit chuvalchanglar oilasining vakillari bo'lib, odatda inson organizmida yashaydi va uning normal ishlashini buzadi va gelmintoz deb ham ataladi. Hozirgi vaqtda gelmintlarning 400 ga yaqin turlari ma'lum.

**Kasallik belgilari.** Organizmda gelmintlar mavjudligi va belgilari turlicha bo'lishi mumkin, bu esa qaysi parazit turi tana ichiga kirganligiga bog'liq. Gelmintoz belgilariga quyidagilar kiradi:

1. o'zini yomon his qilish;
2. holsizlik
3. allergiya, eshakemi;
4. charchoq, ruhiy tushkunlik;
5. ishtahaning pasayishi yoki ortishi;
6. ТОШНОТА;
7. qusish;
8. qorin bo'shlig'idagi o'tkir og'riqlar;



9. uyqu paytida tishlarni g'ijirlatish;
10. defekatsiya buzilishi (ich qotishi va buzilishi);
11. tez vazn yo'qotish;
12. parazitlar va ularning qismlari, shuningdek, tuxumlar axlat bilan chiqariladi;
13. orqa chiqaruv teshigi atrofidagi qichishish;
14. uyqusizlik.

**Gelmintozni davolash** bir necha usul bilan amalga oshiriladi, jumladan:

- parazitlarga qarshi vositalar;
- sorbentlar;
- fermentlar;
- immunitetni kuchaytiruvchi vositalar;
- gepatoprotektorlar (jigar faoliyatini yaxshilovchi vositalar).

**Parazitlarni yuqtirmaslik va kelajakda shifokorga bormaslik uchun, quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:**

- ◆ shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish kerak ;
- ◆ meva, sabzavotlar va boshqa oziq-ovqatlarni iste'mol qilishdan oldin yuvish kerak ;
- ◆ dengiz mahsulotlari, go'sht va baliqlarni iste'mol qilishdan oldin ularga yetarli darajada issiqlik bilan ishlov berish kerak ;
- ◆ bolalarni nazorat qilish, ularga ifloslangan narsalarni yeyishi yoki og`ziga solishiga qo`l qo`ymaslik kerak.

#### **Adabiyotlar:**

1. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" III kitob 75- bet.
2. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" III kitob 75- bet.
3. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" III kitob 75- bet.
4. Djumayeva Maxfuza Kayumovna , Obidova Maftunabonu Haydar qizi, [QANDLI DIABETNING KELIB CHIQISH SABABLARI , BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI: Vol. 3 No. 12 \(2023\): BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY-AMALIY JURNALI](#)
5. Djumayeva Maxfuza Kayumovna , Avezova Dilfuza Baxtiyarovna , [OVQAT HAZM QILISH SISTEMALARINI DAVOLASH UCHUN ISHLATILADIGAN SHIFOBAXSH O`SIMLIKLAR VA ULARNING](#)



TARKIBINI O'RGANISH , BARQARORLIK VA YETAKCHI  
TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI: Vol. 3 No. 12 (2023):  
BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY-  
AMALIY JURNALI

6. Djumayeva Maxfuza Kayumovna, Samandarova Mubina Oybekovna YUQORI NAFAS Olish sistemalarini kasalliklarini davolash uchun ishlatiladigan shifobaxsh o'simliklar BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI: Vol. 3 No. 12 (2023): BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY-AMALIY JURNALI